TAVALLO - TO‘LAGAN XO‘JAMIYOROV



To‘lagan Xo‘jamiyorov – Tavallo (1883-1938) – o‘zbek milliy adabiyotining namoyandalaridan biri. Toshkentda Obinazir mahallasida, qo‘ychibon Jiyanboy Xo‘jamiyorov oilasida dunyoga kelgan. Eski usuldagi maktabda ta’lim olgan, rus-tuzem maktabining 5 sinfini tugatgan. Sayramlik mashhur shoir Yusuf Saryomiga shogird tushib, mumtoz adabiyot va she’riyat sirlarini o‘rgangan va o‘zlashtirgan. Tavallo 1900 yillardan boshlab badiiy ijod bilan shug‘ullana boshlagan. U she’riyatda mumtoz adabiyot an’analarini davom ettirgan holda o‘z davrida shiddat bilan jamiyat hayotiga kirib kelayotgan islohotchilik g‘oyalarini tarannum etdi. O‘z zamondoshlari bilan birga “Jamiyati imdodiya”, “Turon” hamda “Sho‘royi islom” tashkilotlari faoliyatida qatnashdi. 1900 yilda otasining tavsiyasi bilan Prejevalskka borib, Usmonbek boyning qo‘lida gumashta bo‘lib ishlaydi. 1909 yilda u yerdan qaytib kelib, Beklarbegi madrasasida bir oz tahsil oladi. 1914 yilda safdoshlari bilan birga “Nashriyot” firmasini tashkil etdi. 1914-1916 yillarda savdogar Albert Guber firmasida gumashta, 1917-1918 yillarda Toshkent eski shahar ijroqo‘mida hay’at a’zosi; 1918-1919 yillarda TurkChKda ishladi, firqaga a’zo bo‘ldi; 1924 yilda Farg‘ona revtribunalida ishlagan. Turkistonning talaygina nashrlari, jumladan, “Turkiston viloyatining gazeti”, “Oyina”, “Sadoyi Turkiston” keyinchalik “Qizil bayroq”, “Turkiston” nashrlarida, ayniqsa “Mushtum” jurnalida satirik she’rlari bilan faol qatnashdi.

1926 yilda matlubot tashkilotida ishlagan. 1937 yilda “Qizil xomashyochilar uyushmasi”da instruktor bo‘lib ishlagan. 1937 yil qamoqqa olinib, shu yil 19 oktabrda otuvga hukm qilingan. 1916 yilda “Ravnaqul islom” she’rlar to‘plamini chop ettirgan.